



UDK:371.03.1

Otabek SHIRINOV,

Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi Pedagogika va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasini mudiri, PhD
E-mail:otabek@gmail.com

JTSMQTMOI dotsenti S.Yaxoyeva taqrizi asosida

O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya

Mazkur maqola yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullariga oid ma'lumotlarni asoslab, unda yoshlarda zarur bilim, ko'nikma, mahorat va mustahkam irodani, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan omillarga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning psixologik aspektlari ko'rib chiqiladi. Vatanparvarlik, insonning o'z vataniga, uning tarixiga, madaniyatiga va an'analari bo'lgan muhabbati va sadoqatidir. Maqola, vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishi uchun zarur bo'lgan psixologik omillarni, ta'lim jarayonidagi o'rni va amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Yoshlar, vatanparvarlik ruhi, tarbiya, psixologik ta'sir, ong, millat.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА У СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье обосновываются сведения о методах воспитания молодёжи в духе патриотизма, акцентируется внимание на факторах, влияющих на сознание, психику и деятельность молодёжи, направленных на формирование необходимых знаний, навыков, умений и сильной воли, высоких духовно-нравственных качеств. Также рассматриваются психологические аспекты формирования чувства патриотизма у студентов. Патриотизм – это любовь и преданность человека своей Родине, её истории, культуре и традициям. В статье представлены психологические факторы, необходимые для формирования чувства патриотизма, его роль в воспитательном процессе и практические рекомендации.

Ключевые слова: Молодёжь, патриотический дух, воспитание, психологическое воздействие, сознание, нация.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF FORMING A SENSE OF PATRIOTISM IN STUDENTS

Annotation

This article substantiates information on methods of educating young people in the spirit of patriotism, focuses on the factors that influence the consciousness, psyche and activity of young people, aimed at forming the necessary knowledge, skills, abilities and strong will, high spiritual and moral qualities. It also considers the psychological aspects of forming a sense of patriotism in students. Patriotism is a person's love and devotion to his homeland, its history, culture and traditions. The article presents the psychological factors necessary for the formation of a sense of patriotism, its role in the educational process and practical recommendations.

Key words: Youth, patriotic spirit, upbringing, psychological impact, consciousness, nation.

Kirish. Vatanparvarlik tuyg'usi har bir insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar orasida vatanparvarlikni shakllantirish, ularning shaxs sifatida rivojlanishida, ijtimoiy mas'uliyatni his qilishida va kelajakda o'z vataniga xizmat qilishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan ko'plab dasturlar va loyihalar mavjud. Biroq, bu jarayonning psixologik asoslarini chuqurroq o'rganish zarur. Agar uzoq tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, vatanga e'tiqod tuyg'usi xalqimiz tomonidan qadimdan e'zozlanib kelganining guvohi bo'lamiz. Bugungi kunda jamiyatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning qalbida Vatanga sadoqat, xalqiga muhabbat va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish har bir o'qituvchi va ota-onaning muqaddas burchidir. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – bu nafaqat bilim berish, balki, ularning, qalbida, Vatan, ga,

muhabbat, fidoyilik, tarixiy, xotiraga, hurmat, kabi, yuqori, fazilatlarini, uyg'otish, demakdir[1].

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlik – bu so'z bilan cheklanuvchi oddiy tuyg'u emas, balki yurtga muhabbat, uni himoya qilishga tayyorlik, xalqining boy madaniy merosiga hurmat, ajdodlar yo'liga sadoqatli bo'lishdir. Vatanparvarlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va ularni amalga oshirgan tadqiqotchilar ko'plab sohalarda o'z hissalarini qo'shgan. A. Qodirov vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyatini o'rganib, yosh avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlarining rolini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlari o'z ichiga o'zbek xalqining tarixiy merosini, madaniyatini va adabiyotini o'zida mujassam etadi. G. Abdullaeva vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda psixologik omillarni o'rganadi. Uning ishlarida yoshlarning shaxsiyati, ularning ijtimoiy muhitga ta'siri va vatanparvarlik hissiyotlarini rivojlantirish uchun tavsiyalar berilgan. O. Murodov - Ijtimoiy fanlar

mutaxassisi. U vatanparvarlik tarbiyasini jamiyatda ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi omil sifatida ko'radi. O'z tadqiqotlarida u milliy identitetni saqlash va rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratadi. D. Karimova maktab ta'limida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish bo'yicha ko'plab loyihalar va dasturlar yaratgan. Uning tadqiqotlari maktab o'quvchilarida vatanparvarlik hissini kuchaytirishga qaratilgan. Sh. Tursunov vatanparvarlik tarbiyasining zamonaviy usullari va metodologiyalarini o'rganadi, shuningdek, bu jarayonda axborot texnologiyalarining rolini tahlil qiladi[2].

Vatanparvarlik - bu kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha.

Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan. Vatanparvar insonlar vatanimizda juda ham ko'p uchraydi. Masalan, Abdulla Avloniy, u qatag'on yillari paytida yashagan bo'lsa ham so'z erkinligi unda juda rivojlangan. Mahmudxo'ja Behbudiy, u o'zining bolalarni o'qitish kitoblari bilan Vatanimizda tanilgan.

Tahlil va natijalar. Yoshlarning qalbida bu tuyg'ularni shakllantirish uchun ularning tarbiyasiga ongli yondashuv talab etiladi.

Maktab – bu faqat bilim beradigan emas, balki tarbiya beradigan maskan hamdir. O'qituvchilar tomonidan o'tkazilayotgan vatanparvarlik darslari, tarixiy shaxslar hayoti bilan tanishtiruvchi tadbirlar, bayramlar, onatimiz va milliy qadriyatlarimizni ulug'lovchi loyihalar orqali o'quvchilarning yuragida vatanparvarlik ruhi mustahkamlanib boradi.

Ayniqsa, Mustaqillik, Vatan himoyachilari kuni, 9-may – Xotira va qadrlash kabi muhim sanalarda o'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiya vi suhbatlar, uchrashuvlar, muzeylarga sayohatlar juda samarali vositadir.

Shuningdek, adabiyot va san'at darslarida ham Vatanga bo'lgan muhabbatni singdirish mumkin.

Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi - jamiyatda yuqori ijtimoiy faollik, fuqarolik javobgarligi, ma'naviyatni rivojlantirish, davlatni mustahkamlash, uning manfaatlarini va rivojlanishini ta'minlash. Maqsadga erishishda quyidagilarning rivojlanishi orqali vazifalar amalga oshiriladi: Fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va jamoaviy hayot normalariga hurmat ruhida tarbiyalashdir. Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va uning burchlari amalga oshirilishini ta'minlash uchun sharoit yaratish ham shu jumladandir. Millat taqdiri bilan yashash, vatanga e'tiqod, adolat, insoniylik tuyg'usi yuksak darajada shakllangan, milliy g'urur va iftixorimizga aylangan buyuk bobokalonlarimizning o'gitlarida o'z aksini topdi. Buni biz haqiqiy vatanga e'tiqodli yurtdoshlarimizdan biri Shayh Najmiddin Kubro faoliyatida ko'rishimiz mumkin. Shayh Najmiddin Kubro yoshlarning vatanga muhabbatini oshirish bilan birgalikda, bir-birlariga mehr-oqibatli bo'lishga undadi.

O'z vatani ozodligi yo'lida qo'lga qilich olib, dushmanga qoqshatqich zarba keltira olgan Xorazmning mardo'g'loni Jaloliddin Manguberdi dir.

Jaloliddin Manguberdi ning hayoti va vatanga e'tiqod yo'lidagi faoliyatini chuqur tahlil asosida o'rganish o'smir yoshdagi o'quvchilarning vatanga e'tiqod, ona Vatanga cheksiz muhabbat, g'urur va iftixor, vatan va xalq tinchligi yo'lida jon fido etish, insonparvarlik kabi qarashlarini tarkib topirish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jaloliddin Manguberdi butun hayotida o'z xalqini va vatanini sevdi, tarixiy va madaniyatini yuqori qadrladi, ona tabiat go'zalliklarini qalban his qildi, ardoqladi.

Yoshlarimiz, yuragida, Vatanga, sadoqat, millatga, xizmat, qilish, istagini, uyg'otgan, taqdiridagina, biz, kelajakda, kuchli, bilimli, va, fidoyi, yoshlar, yetishtirishga, erishamiz. O'quvchilarda, vatanparvarlik, tuyg'usini, shakllantirish – bu, kelajakka, ekilgan, eng, barakali, urug'dir.

Bugungi, globallashuv, va, axborot, tezkorligi, davrida, yoshlarda, Vatanga, bo'lgan, mehri, mustahkamlash, lozim. O'quvchilarda, vatanparvarlik, tuyg'usini, shakllantirish – ularni, barkamol, shaxs sifatida, tarbiyalashning, asosiy, yo'nalishlaridan, biridir.

Vatanparvarlik, tarbiyasining, maqsadi:

- Yoshlarning, qalbida, Vatanga, sadoqat, hissini, uyg'otish;

- Ularni, tarixiy, merosimiz, buyuk, ajdodlarimizning, jasorati bilan, tanishtirish;

- Jamiyat oldida, mas'uliyat hissini, shakllantirish.

Oila - vatanparvarlik tarbiyasining ilk maskani. Farzandlarga, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, ota-bobolarning jasorati haqida hikoya qilish ota-onaning burchidir. Jamiyat esa bu jarayonda o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Yoshlarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – bu kelajakni asrash demakdir. Vatanga sadoqatli, ongli, bilimli va ma'naviyatli avlod – mustahkam jamiyatning poydevoridir. Shu bois maktab, oila va jamiyat birgalikda harakat qilib, o'quvchilar qalbida vatanparvarlikni ildiz solish zarur.

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullari:

1. Og'zaki ta'sir usullari

Bu usullar orqali o'quvchilarning tafakkuri va hissiyotiga ta'sir qilinadi:

Suhbatlar va dars mashg'ulotlari: Tarix, adabiyot, "Ma'naviyat darslari" orqali milliy g'urur uyg'otiladi.

Axloqiy-pedagogik nutqlar: O'qituvchi yoki mehmonlarning Vatan haqidagi chiqishlari.

2. Ko'rgazmali usullar

Bu usullar orqali o'quvchilar fikrni obrazlar orqali idrok etadi:

Rasmlar, videoroliklar, hujjatli filmlar: Vatan haqidagi tasviriy vositalar orqali ta'sirchan usullardan foydalanish.

Tarixiy obidalar, yodgorliklarga ekskursiyalar: Bevosita ko'rish orqali tarixni chuqur his qilish.

Slayd-shou va prezentatsiyalar: Vatanparvarlik mavzularida yaratilgan vizual materiallar.

3. Amaliy-uslubiy usullar

O'quvchilarning faol ishtiroki orqali tarbiyalash: Harbiy-sport musobaqalari (Vatan himoyachisi, "Shunqor", "Yosh chegarachi").

Insho yozish, she'rlar, sahna ko'rinishlari.

Xotirat tadbirlari, faxriylar bilan uchrashuvlar.

"Men Vatanimni sevaman", "Mening yurtim – mening faxrim" kabi tanlovlar.

Hayotiy misollar va shaxsiy namunalar orqali o'rnak bo'lish.

O'qituvchilarning va ota-onalarning shaxsiy namunasi: Ularning Vatanga bo'lgan mehr-muhabbati o'quvchilarga o'rnak bo'ladi.

4. Milliy qadriyatlar asosida tarbiya

Urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi (maqollar, ertaklar, dostonlar) orqali vatanparvarlik g'oyasini singdirish.

Muqaddas joylarga ziyoratlar (Temur maqbarasi, Shahidlar xotirasi) va boshqalar.

Vatanparvarlik tarbiyasining shakllari va usullari fuqarolikni, vatanga, jonajon O'zbekiston ga va ularning kichik qishloqlariga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishga qaratilishi kerak.

Fuqarolik-vatanparvarlik ta'limining bunday shakllari maktab o'quvchilarini tarbiyalashni tarix fanlarida mustaqil izlanishlarga jalb qilishni o'z ichiga oladi. Maktabning ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida ishtirok etish, tarixiy yodgorliklarni bilish va saqlash, himoya qilish bo'yicha o'z o'rmini egallash ham muhim xususiyatdir. [6,9].

Vatanparvarlik tuyg'usining psixologik asoslari quyidagilarda nomoyon bo'ladi.

1. O'zligini anglash: O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda o'zligini anglash muhim ahamiyatga ega. O'z vataniga bo'lgan muhabbat va

sadoqat, shaxsning o'zligini anglash jarayonida shakllanadi.

2. Tarixiy xotira: Tarixiy xotira, o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tarixiy voqealar, qahramonlar va ularning yutuqlari haqida ma'lumot berish, o'quvchilarda milliy g'urur hissini oshiradi.

3. Madaniy meros: O'zbek xalqining madaniy merosi, an'analari va urf-odatlarini, o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Madaniy merosni o'rganish orqali o'quvchilar o'z xalqining qadriyatlarini anglaydilar.

4. Ijtimoiy munosabatlar: Oila, do'stlar va jamiyat bilan ijtimoiy munosabatlar, vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy aloqalar orqali o'quvchilar o'z vataniga bo'lgan sadoqatlarini his etadilar.

Xulosa. O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, ularning shaxs sifatida rivojlanishi va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishida muhim rol o'ynaydi. Vatanparvarlikni shakllantirishda o'quvchining faoliyati muhim o'rin tutadi. YA'ni, o'quvchi o'z faoliyatida tahlil va tafakkur qilishi bilan katta ahamiyatga ega. Demak, vatanparvarlikni shakllantirishda unga mos sharoit yaratuvchi muhit va tarbiyaning roli nihoyatda yuksak. Psixologik aspektlarni tushunish va ulardan foydalanish orqali ta'lim jarayonida vatanparvarlikni oshirish mumkin. Kelajakda bu sohada ilmiy tadqiqotlar davom ettirilishi zarur, chunki vatanparvarlik tuyg'usi har bir insonning hayotida muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Bobomurodov M. Duronov M. Bunyodkor kuch. "Tafakkur" jurnali. –2003
2. Yoqubov S. Axborot jamiyati: xayolotemas, haqiqat. Tafakkur. –2007.
3. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. - T.: O'qituvchi, 1994.
4. Aminov B., Rasulov T. Vatan yurakdagi javohir. - T.: O'qituvchi, 2001.
5. Atadjanova Sh. Oilada o'spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogic asoslari: ped.fan.nomz. dis-yasi. - T.: TDPU, 2001.
6. Hasanboev J., Hasanboeva O., Turopova M. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. -112 b.
7. Ibragimova G.X. Kasb ta'limi tizimida talaba-yoshlar ma'naviyatini milliy istiqloq g'oyasi asosida shakllantirish. - T.: Fan, 2005. -159 b.